

**ILMIDDIN SAXOVIYNING “MUFADDAL FI SHARHI-L-MUFASSAL” ASARI YARATILISH
TARIXI**

Yo’Idashaliyeva Marjona

Kalit so’zlar: *nahv, mufaddal, mufassal, murakkabun mufidun, murakkabun g’oyru mufidin.*

“Al-Mufassal” asarining muallifi. O’rta asrlarda yashab ijod qilgan olimlar davrasiga kirib borar ekanmiz, u yerda ko’plab tilshunos, islomshunos, adabiyotchilarni uchratamiz. Nodir qo’lyozma kitoblarini varoqlarganimizda, hayratga to’lib, olimlar o’sha davrda arab tilining yuksak binosini yaratganiga va hozir ham bu asarlar naqadar qadrli ekaniga amin bo’lamiz. Mana shunday olimlardan biri hisoblangan Abu-l-Qosim Mahmud binu Umar Az-Zamaxshariy (1074 - 1143) - o’rta osiyolik yozuvchi, faylasuf, tilshunosdir. Zamaxshariy 1075 yil 19 mart kuni Xorazmnning Zamaxshar shahrida tug’ilgan, yoshligida kasal bo’lganligi bois, bir oyog’idan ayrılgan, yog’och oyoq yordamida harakatlangan va hayoti davomida ko’plab ilmiy asarlar yozgan. Az-Zamaxshariy o’z davrining yirik tarixshunosi, jo’g’rofiyachisi, adabiyotshunosi, tilshunosi, pedagogi va shoiri hisoblanadi. Uning qalamiga mantiq, grammatika, din, lug’at, adabiyot, adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix va jo’g’rofiyaga oid 50 dan ziyod asarlar mansubdir. U bilimlarini kitoblari va o’quvchilari orqali tarqatgan. Uning ko’plab asarlari bizning davrimizgacha yetib kelgan.⁵³

“Mufaddal fi sharhi-l-mufassal” asari Zamaxshariyning “Al-mufassal” iga sharh qilib yozilgan. Xususan, “Al-Mufassal” asari bir yarim yil ichida, 1121 yil Makkada yozilgan. Arab tili grammatikasiga bag’ishlangan bu kitob ahamiyatiga ko’ra, arab olimi Sibavayxining asarlaridan so’ng ikkinchi o’rinni egallaydi, ⁵⁴deb hisoblanadi. Bu Az Zamaxshariy qo’lyozmalari o’z vaqtida qanchalik qadrlanganligini ko’rsatadi. “Al-Mufassal” arab tili nahvu sarfini o’rganishda muhim qo’llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G’arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi. O’sha davrning o’zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e’tibor qozongan va arab tilini o’rganishda asosiy qo’llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan.

Ushbu asar qo’l yozmasi Toshkentda, O’zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Hayotligida uni “Butun dunyo muallimi”, “Barcha arablar va boshqa xalqlar muallimi”, “Allohning qo’shnisi”, “Xorazm shahrati” va boshqa nomlar bilan ulug’lashgan.⁵⁵

“Mufaddal fi sharhi-l-mufassal” asarining muallifi. Arab tilida ijod qilgan ulaolarimizning asarlarini nafaqat O’rta Osiyo, balki butun dunyo olimlari izlagan, tarjima

⁵³ Imran Arslan, ez-Zamahşerî ve el-unmûzec adlı eseri, s.51.

⁵⁴ <https://milletkutuphanesi.gov.tr/icerik/detay/iletisim>

⁵⁵ <https://t.me/attanalgrandforum>

qilishgan, tadqiqotlar olib borilgan, sharhlar yozishgan. Ana shunday ko'zga ko'ringan olimlardan biri, Ali ibn Muhammad ibn Abdussomad ibn Abdulahad ibn Abdulg'olib ibn Atosi-l-Hamadoni-l-Misriy As-Saxoviydir. U Misrning (Saxo) shahrida tug'ilgani sababli ham, ko'pab manbalarda AS-SAXOVIY deb nomlanadi. U tug'ilgan yilni bazi olimlar hijriy 558 yilda deb keltiradilar. Bunga sabab qilib esa, Ibn Xalqonning "Mashhur insonlarning vafoti" nomli kitobidagi ma'lumotlar orqali dalillaydilar. Ali ibn Muhammad ibn Abdussomad ibn Abdulahad ibn Abdulg'olib ibn Attos Hamdoniy, Misriy, Saxoviydir. Misrning Saxo shahrida tug'ilgangani aniq, ammo, tug'ilgan yili noma'lum. Aksar manbalarda, xususan Ibn Hallikonning "Vafayotul a'y'on"ida 558 hijriy deb ko'rsatiladi. "Ilmuddin" va "Saxoviy" nisbatlari bilan mashhur bo'lgan. Doim Ilmuddin Saxoviy deb birga aytilgan. Kunyasi Abul Hasandir. Uning tarjimai holi keltirilgan kitoblarda bolalik yillari, murabbiylari, ilm o'rghanishiga homiylik qilganlar batafsil yoritilmagan. Aslida bu davr olimning ulg'ayishi va shakllanishiga turtki bo'lgan yillardir. O'zi tug'ilgan joyda ilm o'rghanib, o'sha yerda shuhrat qozongan. Lekin olimning hayotini to'liq ochib beradigan manbalar ozchilikni tashkil qiladi. U yetuk muallim, arab tili imomi, qiroatlar olimi, tafsir ilmi mutaxassis bo'lgan. Ilm olish va ilm o'rgatishdan tashqari, ko'plab asarlar muallifidir. Yozgan kitoblari haqida ham ma'lumotlar turlicha bo'lib, nashr etilganlari "Safarus saoda va safirul ifoda", "Minhojut tavfiq ila ma'rifatit tajvid vat tahqiq" hamda "Mufoddal fi sharhi-l-mufassal" hisoblanadi. Bundan tashqari qo'lyozmalaridan "Jamolul Qurro va kamolul iqro", "Zatul hilal va mihatul kilal", "Munirud diyajiy", "Alvasila fi kashfil aqila", "Almafoxiro bayna Dimashq val Qohiro", "Nazmul davobit an-nahviyya" kabi asarlari mavjud. Ismoil Posho Bag'dodiy ma'lumotiga ko'ra, Ilmuddin Saxoviyning kitoblari alohida ajralib turgan, boshqalarnikiga o'xshamagan.

Olimning vafot etgan sanasi 643 hijriyda, jumadul oxir oyining 12 kechasida olamdan ko'z yumgan. Damashq g'arbidagi Qosiyun tog'iga, o'zi avvaldan taylorlatib qo'yan qabrgan dafn etilgan. Keyinchalik, "Saxoviy qabri" nomi bilan tanilib ketgan. Alloh bu kishini rahmati bilan o'rab olsin. Sermahsul ilmidan bizni foydalantirsin!

"Al-Mufoddal fi sharhil mufassal" kitobining ahamiyati. Ushbu kitob Ibn Ya'ishning "Mufassal"ga yozgan sharhiga o'xshash alohida kitob bo'lib, avvalgi sharhga tenglasha oladi. O'z vaqtida ibn Ya'ishning kitobi har yerga ovoza bo'lib, insonlar orasida keng ommalashib ketgan. Darslarda asosiy murojaat qilinadigan va ishonzhli manba o'laroq qo'llanilgan. 1882 yil ikki juzidan iborat mukammal nashri ham chiqqan. So'ng Qohirada "Idarotut tiba'al muniriyya" nashriyotida qayta bosilib, Azhar Oliy Kengashi darslik sifatida o'qitish uchun tavsiya bergan. Sababi, boshqa "Mufassal"ga yozilgan sharhlar bu darajada shuhrat qozonmagan edi. Ibn Ya'ishning sharhi esa arab tilining sarf va nahvini o'rGANUVCHILAR uchun asosiy kitob bo'lib qolavergan. Ammo keyinroq Ilmuddin Saxoviy qalamiga mansub mufassilga yozilgan sharh yuzaga kelgan va o'z davrida shuhrat qozongan.

“Mufaddal fi sharhi-l-mufassal” asarining nusxalari. Izlanishlar natijasida, ushbu kitobning nusxalari arabiq qo’lyozmalarining sarf va nahvga oid qismidagi mundarijasidan izlandi va arabiq va ajnabiq qo’lyozmlar fondida bor bo’lgan nusxalar izlab topildi.⁵⁶ Kitobning bugungi kunda 4 ta nusxasi ma’lum bo’lib, ular quidagilardir:

Qohiradagi Arab davlatlari universiteti qoshidagi qo’lyozmalar institutida bir nusxasi saqlananadi. Ammo namiqish qo’lyozmaning asosiy qismiga shikast yetkazgan.

So’ng “Darul kutubil Misriyya”da ham ushbu asarning qo’yozma nusxasi mavjud. Ammo u to’liq emas, kitobdagi 6 qism mutlaqo yo’qolib ketgan.

Gollandiyadagi “Liydan” universitetida yana bir nusxa mavjud bo’lib, u nisbatan to’liq shaklda saqlangan. 6-qism ham mavjud. Kitobning tarkibida fe’lning bir qismi, harflarning to’liq qismi, fe’l va ism orasidagi mushtarak qismi aks ettirilgan, ammo aniq betlarni ajratish qiyin.

Hindistondagi Rampur universitetida ham bir nusxa mavjud ammo ma’lumotlar berilmagan.

Ushbu qo’lyozmalar ichida Liydan nusxasi eng mukammali, aniq va ravshan ko’rinishlisi edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Arslan, ez-Zamahşerî ve el-unmûzec adlı eseri, Diyarbakır, 2018. 133s.
2. Kâtip Celebi, Mustafa b. Abdullah el-Kostantînî, Keşfu’z-Zunûn ‘an Usâmi’l- Kutubi ve’l-Funûn, (Nşr. Muhammed Şerefuddîn Yaltekâyâ), Dâru İhyâ’ı-t-Turasi’l-‘Arabî, Beyrut tsz.
3. <https://istanbul.ktb.gov.tr/TR-290862/fatih-merkez-kutuphanesi.html>
4. <https://islamansiklopedisi.org.tr/nuruosmaniye-kutuphanesi>
5. <https://www.quranicthought.com>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmud Zamashariy. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019.
2. Solijon Hasanov. “Xorazm ma’naviyati darg’alari”. – Toshkent: “Adolat”, 2001. B.123-130.
3. Ozod Masharipov, Alisher Masharipov. “Xorazmnama”. – Toshkent: “Istiqlol nuri” nashriyoti, 2014. B. 201-218.
4. “Ma’naviyat yulduzlari” (To’plovchi va mas’ul muharrir M. Xayrullaev). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
5. “Buyuk ajdodlarimiz”. (Mas’ul muharrir: M.Aminov, F.Hasanov). – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.

⁵⁶ <https://enesince.net/kutuphaneler-dijital-arsivler-ve-cevrimici-kaynaklar>

6. www.ziyo.uz